

## **O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV OLIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Iroda Erkin qizi Islomova**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

***Annotatsiya:** Zamonaviy ta’lim tizimi inson huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy adolat va tenglik prinsiplariga asoslanib shakllanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir shaxs ta’lim olish huquqiga egaligi qat’iy belgilab qo’yilgan. So‘nggi yillarda global ta’lim siyosatida inklyuziv ta’lim konsepsiyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ilgari surilmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu barcha ta’lim oluvchilarning, jumladan, jismoniy, aqliy yoki boshqa turdagi cheklovlarga vaqtincha yoki doimiy ravishda ega bo‘lgan shaxslarning ta’lim muassasalarida teng va sifatli ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan pedagogik va huquqiy yondashuvdir.*

***Kalit so‘zlar:** ta’lim, oliy ta’lim, inklyuziv ta’lim, alohida ehtiyojli shaxslar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ta’lim shakli, ta’lim tizimi, ta’lim prinsipi*

Inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashning tahskiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilishni xalqaro standartlar asosida boshlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Huquqshunos J.Bokiyevning e’tirof etishicha, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning tarixi 1971-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Aqliy zaif shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilingan paytdan boshlanadi[1]. Mazkur hujjatda aqli zaif shaxslar, maksimal darajada, boshqa shaxslar bilan bir xil huquqlarga egaligi belgilangan[2]. Bu qoida inson huquqlarini ta’minlashda tenglik prinsipining amalda ta’minlanishida muhim asoslardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1975-yil 9-dekabrda rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya nogironligi bo'lgan shaxslarning qoniqarli hayotga bo'lgan huquqini, shuningdek, barcha fuqaroviy va siyosiy huquqlarni tan oladigan umumlashtirilgan xarakterdagi xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi[3]. Ushbu deklaratsiya nogironlar uchun barcha fuqaroviy va siyosiy huquqlarning tan olinishi va himoya qilinishini ta'minlovchi umumlashtirilgan xarakterga ega xalqaro-huquqiy hujjat hisoblanadi. U barcha davlatlardan nogiron shaxslarning teng huquqli ishtirokini kafolatlovchi qonunchilik va institutsional mexanizmlarni shakllantirishni talab qiladi.

1993-yilgacha qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning individual muammolarini hal qilgan bo'lsa-da, ularning huquqlarini to'liq amalga oshirish va ularni himoyasini qila olmadi.

Faqatgina 1993-yilda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bo'yicha asosiy kompleks hujjat – Nogironlar uchun imkoniyatlarni tenglashtirishning standart qoidalari qabul qilindi[4]. Mazkur hujjatda keltirilgan 6-qoida ta'limga bag'ishlangan bo'lib, unda Davlatlar integratsiyalashgan tuzilmalarda nogironligi bo'lgan bolalar, yoshlar hamda kattalar uchun boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limda teng imkoniyatlar tamoyilini tan olishlari, ularning ta'limini umumiy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lishini ta'minlashlari kerakligi belgilandi.

Shu munosabat bilan, 1994-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi nogironlar uchun Butunjahon harakat dasturini kelgusida amalga oshirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ma'qulladi. Uning asosiy maqsadi barcha xilma-xil inson resurslari va har bir insonga o'zining maksimal salohiyatini

rivojlantirishga imkon berishga qaratilgan – “barcha uchun” jamiyatini yaratish deb e’lon qilindi.

Nogironligi bo’lgan shaxslarning ta’lim olish huquqini ta’minlashning huquqiy asoslarini xalqaro doirada takomillashitirishda 1994-yil 7-10-iyun kunlari alohida ahamiyatga ega. Sababi ushbu kunlarda Ispaniyaning Salamanka shahrida bo’lib o’tgan “Alohida ehtiyojli shaxslar uchun ta’lim: ta’lim olish imkoniyati va sifati” bo’yicha Butunjahon konferensiyasida Salamanka deklaratsiyasi va “Alohida ehtiyojli shaxslarning ta’lim olishi bo’yicha harakatlar asoslari” qabul qilindi[5]. Unda barcha davlatlar hukumatlari quyidagilarni amalga oshirishga chaqirildi:

- ta’lim tizimini inklyuziv qilish zarurligiga ustuvor ahamiyat berish;
- huquqiy yoki siyosiy tizimning tarkibiy qismi sifatida inklyuziv ta’lim tamoyilini kiritish;
- ko’rgazmali loyihalarni ishlab chiqish;
- inklyuziv ta’lim faoliyati sohasida tajribaga ega davlatlar bilan hamkorlik va tajriba almashinuvni rivojlantirish;
- bolalar va kattalar ta’limini rejalashtirish, monitoring qilish hamda baholash usullarini ishlab chiqish;
- nogironlarning ota-onalari va nogironlik tashkilotlarining ishtirokini rag’batlantirish va ko’maklashish;
- erta tashxis va erta aralashuv strategiyasini moliyalashtirish;
- inklyuziv ta’limning kasbiy jihatlarini rivojlantirishni moliyalashtirish;
- o’qituvchilarni tayyorlash bo’yicha tegishli dasturlar mavjudligini ta’minlash.

Shuningdek, “Alohida ehtiyojli shaxslarning ta’lim olishi bo‘yicha harakatlar asoslari” alohida ehtiyojlar uchun ta’limga yangi yondashuvlarning umumiy tavsifini, shuningdek, milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi harakatlarning asosiy yo‘nalishlarini taqdim etadi.

Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohasidagi eng muhim xalqaro hujjat hisoblanadigan Nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 13-dekabrda 61/106-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan[6].

Konvensiyaning 24-moddasida shunday deyiladi:

“Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta’lim olish huquqini e’tirof etadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan, imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta’limni va butun umri davomida o‘qitilishlarini ta’minlaydi, bunda quyidagilarga harakat qiladi:

a) inson salohiyatini, shuningdek, qadr-qimmat va o‘zini hurmat qilish hissini to‘la rivojlantirish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishni kuchaytirish;

b) nogironlarning shaxsini, iste’dodini va ijodini, shuningdek, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to‘la hajmda rivojlantirish;

d) nogironlarga jamiyat hayotida samarali va erkin ishtirok etish imkoniyatini yaratish”.

Ko‘rib turganimizdek, mazkur konvensiyada nogironlarning ta’lim olish huquqlarini ta’minlashga qaratilgan asosiy qoidalar va yo‘nalishlar nazarda tutilgan bo‘lib, O‘zbekiston mazkur konvensiyani 2009-yilda imzolagan bo‘lsa[7],

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi O‘RQ–695-son qonuni bilan ratifikatsiya qilgan[8].

O‘zbekistonda ham 2017-yildan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan sohaga oid alohida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5270-son Farmoni bilan Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, unda 50 dan ortiq muhim vazifalar belgilandi[9].

Ushbu chora-tadbirlar doirasida, xususan, maxsus dasturlar ishlab chiqilishini hisobga olgan holda, ta’lim muassasalariga jismoniy yetib borish imkoniyatiga ega bo‘lmagan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun masofaviy ta’lim imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, 2018/2019-o‘quv yilidan boshlab oliy ta’limga qabul qilinayotgan abituriyentlar umumiy sonining ustiga qo‘shimcha tarzda ular uchun 2 foizlik kvota ajratish tartibini joriy etish ko‘zda tutilgan edi.

Yuqorida tahlil qilingan Salamanka deklaratsiyasi bugungi kunda keng qo‘llanayotgan va ushbu paragrafda amalga oshirilayotgan tadqiqotimizning asosiy mavzusi bo‘lgan inklyuzivlik tushunchasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Inklyuzivlik tushunchasi ingliz tilidagi “inclusive” so‘zidan olingan bo‘lib, qamrab olish, o‘z ichiga olish kabi ma’nolarni bildiradi. Umuman olganda, inklyuzivlik

atamasi biror narsaning bir qismi sifatida qo‘shilish, ishtirok etish yoki uning tarkibiga kirishni anglatadi.

G.Hornby va J.Kauffman imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mo‘ljallangan maxsus ta’lim boshlanishi Yevropada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga to‘g‘ri kelishini, XIX asrning boshlari va o‘rtalarida Qo‘shma Shtatlarda ko‘r yoki kar va og‘ir intellektual yoki boshqa aqliy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilganligini qayd etishadi. Ularning fikricha, inklyuziv ta’lim nuqsonli shaxslar uchun mo‘ljallangan maxsus ta’lim hisoblanadi[10]. Bizning fikrimizcha esa, inklyuziv ta’limdagi asosiy jihat bu faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan ta’lim emas, balki imkoniyatlar nuqtayi nazaridan (jismoniy yoki aqliy) yuzaga kelgan farqlarni (doimiy yoki vaqtincha) bartaraf etishni va bu farqlarni ta’lim jarayonlariga ta’sir qilmasligini ta’minlaydigan ta’lim tamoyilidir.

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlarni tahlil qilgan holda “inklyuziv ta’lim” tushunchasiga nisbatan quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: “Inklyuziv ta’lim – barcha ta’lim oluvchilarga – ham sog‘lom, ham nogironligi bo‘lgan ta’lim oluvchilarga moslashtirilgan, barcha ta’lim oluvchilarning ta’limga bo‘lgan o‘z huquqlaridan hech qanday to‘sqinliklarsiz foydalanishiga asoslangan ta’lim tizimidir”.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida inklyuziv ta’lim olish huquqi bo‘yicha bir qator normalar belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inklyuziv ta’limga bo‘lgan huquq ham belgilab qo‘yildi. Zero, Konstitutsiyaning 50-moddasiga ko‘ra ta’lim tashkilotlarida alohida

ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 57-moddasida davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga ko'maklashishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunida inklyuziv ta'limga ta'rif berildi. Ushbu qonunning 20-moddasiga muvofiq inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim shakli.

Ilmiy manbalarda "inklyuziv ta'lim" hamda "integratsiyalashgan ta'lim" tushunchalari ko'pincha o'zaro qiyoslangan holda o'rganiladi. Inklyuziv ta'lim va integratsiyalashgan ta'lim turli ehtiyojlarga ega bo'lgan talabalarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning ikki xil yondashuvidir. Bular inklyuziv ta'lim muhitini targ'ib qilishning umumiy maqsadiga ega bo'lsa-da, bir-biridan asosiy tamoyillari va amalga oshirish strategiyalari jihatidan farqlanadi. Quyida inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadigan ilmiy fikrlarni tahlil qilamiz.

L. Florianning ta'kidlashicha, integratsiyalashgan ta'lim odatda barcha talabalar ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan kengroq tizimli o'zgarishlarni ko'rib chiqmasdan, maxsus ta'limga muhtoj talabalarni umumiy sinflarga joylashtirishni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'lim esa, aksincha, barcha ta'lim oluvchilar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng foydalanish, ta'lim imkoniyatlari va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun butun ta'lim tizimini qayta qurishga qaratilgan. Inklyuziv ta'limda asosiy e'tibor xilma-xillik va

hamkorlikni ragʻbatlantiradigan hamda har bir talabaning muvaffaqiyatini taʼminlaydigan muhitni yaratishga qaratilgan[11].

R. Slining taʼkidlashicha, integratsiyalashgan taʼlim nogironligi boʻlgan taʼlim oluvchilarning individual taʼlim va qoʻllab-quvvatlash ehtiyojlarini yetarli darajada hisobga olmasdan, asosiy sinflarga birlashtirilishini anglatadi. Bundan farqli oʻlaroq, inklyuziv taʼlim har bir talabaning oʻziga xos imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni individual qoʻllab-quvvatlashga katta eʼtibor beradi[12].

Mazkur olimning fikriga qoʻshilgan holda shuni qoʻshimcha qilishimiz mumkinki, inklyuziv taʼlim barcha taʼlim oluvchilarning taʼlim olishga boʻlgan huquqlarini teng darajada roʻyobga chiqarishga hamda ularning taʼlim jarayonida faol ishtirok etishlari va oʻzaro bogʻliqligini his qilishlari mumkin boʻlgan muhitni yaratishga qaratilgan boʻladi.

S. Steynbek va V. Steynbeklarning taʼkidlashicha, integratsiyalashgan taʼlim koʻpincha taʼlim oluvchilarni mavjud taʼlim tuzilmalariga moslashtirishni oʻz ichiga oladi, bu esa nogironligi boʻlgan taʼlim oluvchilarning ehtiyojlarini toʻliq qondira olmaydi. Inklyuziv taʼlim esa, bundan farqli oʻlaroq, taʼlim tizimini oʻzgartirishni talab qiladi. Bunda taʼlim oluvchilarning individual ehtiyojlariga eʼtibor qaratiladi va barcha taʼlim oluvchilarga foyda keltiradigan hamkorlik va qoʻllab-quvvatlash madaniyati shakllanadi[13].

Yuqorida keltirib oʻtilgan ilmiy mulohazalarni tahlil qilish orqali “inklyuziv taʼlim” hamda “integratsiyalashgan taʼlim” tushunchalarining oʻzaro nisbati haqida quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

– integratsiyalashgan taʼlim nogironligi boʻlgan taʼlim oluvchilarni boshqa taʼlim oluvchilar bilan bir guruhga birlashtirishga qaratilgan boʻlsa, inklyuziv

ta'lim barcha ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirish hamda ular o'rtasida inklyuzivlik va xilma-xillik madaniyatini rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi;

– integratsiyalashgan ta'lim barcha mas'uliyatni nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchiga yuklaydi, inklyuziv ta'lim esa tizimni o'zgartirishga va uni nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish orqali barcha uchun teng ta'lim muhitini yaratishga e'tibor qaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilanishicha, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Mazkur normani tahlil qilish natijasida davlatning inklyuziv ta'lim siyosati ko'proq maktab yoshidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Sababi, yuqorida keltirib o'tilgan 20-moddada jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar shunday nuqsonlarga ega bo'lgan shaxslardan alohida bayon qilingan.

Bundan tashqari, qonunning umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga bag'ishlangan 9-moddasida inklyuzivlikni ta'minlashga oid alohida norma belgilangan bo'lsa-da, professional ta'lim va oliy ta'limga oid moddalarda inklyuzivlikni ta'minlash to'g'risida biror-bir norma mavjud emas.

Lekin tadqiqotchi B. Ismoilov nogironligi bo'lgan yoshlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlab beradigan aniq mexanizmlarni aks ettirgan huquqiy asoslar yetarlicha deb e'tirof etgan[14]. Bizningcha, ushbu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki tadqiqotchi tomonidan ko'rsatilgan huquqiy asoslar ham faqatgina ko'zi ojiz fuqarolarni oliy ta'limga qabul qilish tartibiga oid normalar aks etgan asoslar xolos. Ta'lim jarayonidagi asosiy masala faqat o'qishga qabul qilish emas, balki o'quv jarayonlarini tashkil etish hamdir.

Shu bilan birga, qonunning yuqorida tahlil etilgan 20-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, inklyuziv ta‘limni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Biroq O‘zbekiston qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunga qadar xalq ta‘limi sohasida inklyuzivlikni ta‘minlashga qaratilgan o‘nlab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, oliy ta‘limda inklyuzivlikni ta‘minlashga oid munosabatlar yetarlicha reglamentatsiya qilinmasdan qolmoqda. Aniqroq qilib aytganda, milliy qonunchiligimizga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv oliy ta‘lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lsa-da, mazkur huquqni amalga oshirish tartibi va aniq mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasida inklyuziv ta‘lim ta‘lim olish shakllaridan biri sifatida keltirilgan. Taqqoslash uchun, ta‘lim olish shakllariga kunduzgi ta‘lim va sirtqi ta‘lim kabilar ham kiradi. Bu bilan qonun chiqaruvchi inklyuziv ta‘limni umumiy ma‘nodagi ta‘limdan ajratib qo‘ygan va shu bilan uning inklyuzivlik xususiyati yo‘qolgan. Bizningcha, inklyuziv ta‘lim ta‘limning alohida shakli emas, balki uning ajralmas xususiyati va asosiy tamoyili sifatida e‘tirof etilishi kerak. Shu sababli qonunning 15-moddasidagi ta‘lim shakllari ro‘yxatidan inklyuziv ta‘limni chiqarib tashlash va qonunning 4-moddasida keltirilgan ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplardan biri sifatida ta‘limning inklyuzivligini ham belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Milliy qonunchilikdagi yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning asosiy sababi boshqa ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistondagi oliy ta‘lim tashkilotlarida ham nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta‘lim olishi uchun yetarlicha imkoniyatning mavjud emasligi bilan bog‘liq deb hisoblaymiz. Shu sababli mazkur

muammolarni bartaraf etishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan holda inklyuziv ta'limni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Inklyuziv raqamli ta'lim olish to'g'risida turli olimlar tomonidan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

T. Karsenti va J. Bugmann raqamli texnologiyalar ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun turli vositalar va resurslarni taqdim etish orqali inklyuziv ta'lim muhitini yaxshilashi mumkinligini qayd etishgan. Raqamli inklyuziv ta'lim individual ta'lim oluvchilarga, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam beradi. Mualliflarning qayd etishicha, o'qituvchilar texnologiyaning inklyuziv va transformativ ta'sirini ta'minlash uchun ularni o'zlarining sinflariga samarali integratsiya qilishda tegishli tayyorgarlik va yordamga muhtoj[15].

YUNESKO hisobotida keltirilishicha, raqamli texnologiyalar inklyuziv tarzda foydalanilganda, o'rganishdagi to'siqlarni yo'q qilishi, ta'lim oluvchilar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirishi mumkin. Hisobot raqamli ta'lim resurslaridan teng foydalanishni ta'minlash uchun raqamli inklyuziyaga ustuvor ahamiyat beradigan va raqamli tafovutni bartaraf etadigan siyosat va strategiyalar zarurligini ta'kidlaydi[16].

S.O. Donnellning ta'kidlashicha, raqamli vositalarning integratsiyasi tabaqalashtirilgan ta'limni qo'llab-quvvatlashi va ta'lim oluvchilarga o'z tushunchalarini ifodalashning turli usullarini taklif qilishi mumkin, bu esa o'rganishni hamma uchun ochiq qiladi. Muallif universal tamoyillarni hisobga oladigan, barcha talabalarning ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv raqamli ta'lim muhitini ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi[17].

Bizning fikrimizcha, raqamli inklyuziv ta'lim tizimi ta'limdagi tengsizliklarni bartaraf etish va ijtimoiy inklyuziya jarayonini kuchaytirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy raqamli

texnologiyalardan samarali foydalanish orqali pedagoglar har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, o'quv ehtiyojlari va salohiyatiga moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday yondashuv asosida tashkil etilgan raqamli inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan talabalarning va sog'lom talabalarining ta'lim olish imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bizningcha, raqamli inklyuziv ta'limning joriy etilishi an'anaviy (klassik) shakldagi inklyuziv ta'limdan foydalanish huquqlarini cheklab qo'ymasligi zarur. Zero, agar raqamli inklyuziv ta'lim imkoniyatdan tashqari, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun majburiy yagona shakl sifatida belgilanadigan bo'lsa, u holda bunday yondashuv inklyuzivlik prinsiplariga zid bo'lib, ta'limning inkluziv xarakterini yo'qotish xavfini tug'diradi.

## REFERENCES

1. *Bokiyev J.N.*, O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida ta'lim olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish (oliy ta'lim misolida)/ y.f.f.d., – T., 2024, 15-b.
2. Декларация о правах умственно отсталых лиц. Принята резолюцией 2856 (XXVI) Генеральной Ассамблеи от 20 декабря 1971 года. URL: [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/retarded.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/retarded.shtml)
3. Декларация о правах инвалидов. Принята резолюцией 3447 (XXX) Генеральной Ассамблеи от 9 декабря 1975 года. URL: [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/disabled.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/disabled.shtml)
4. Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов. Приняты резолюцией 48/96 Генеральной Ассамблеи от 20 декабря

1993 года. URL:

[https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/disabled.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disabled.shtml)

5. «Саламанкская декларация» и «Рамки действий по образованию лиц с особыми потребностями». Всемирная конференция по образованию лиц с особыми потребностями: доступ и качество (Саламанка, Испания, 7–10 июня 1994 года). URL:

[https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/pdf/salamanka.pdf](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/pdf/salamanka.pdf)

6. Nogironlar huquqlari to‘g‘risida konvensiya (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr). O‘zbekiston Respublikasi uchun 2021-yil 28-iyuldan kuchga kirgan.

URL: <https://lex.uz/docs/5501227>

7. [https://treaties.un.org/Pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg\\_no=IV-15&chapter=4&clang=\\_en](https://treaties.un.org/Pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=IV-15&chapter=4&clang=_en)

8. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияни (Нью-Йорк, 2006 йил 13 декабрь) ратификация қилиш ҳақида”ги ЎРҚ-695-сон Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.06.2021 й., 03/21/695/0536-сон.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 декабрдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5270-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.11.2021 й., 06/21/26/1111-сон.

10. Hornby, G.; Kauffman, J.M. Inclusive Education, Intellectual Disabilities and the Demise of Full Inclusion. J. Intell. 2024, 12, 20.

<https://doi.org/10.3390/jintelligence12020020>

11. *Florian, L.* (2014). *Inclusive Pedagogy: Teaching for Diversity, Social Justice and Equity*. New York: Routledge.
12. *Slee R.* (2011). *The Irregular School: Exclusion, Schooling, and Inclusive Education*. New York: Routledge.
13. *Stainback S., & Stainback W.* (1990). *Integration of Students with Disabilities in Mainstream Schools*. In S. Stainback & W. Stainback (Eds.), *Integration of Students with Disabilities in Schools: Problems and Opportunities* (pp. 1-20). Baltimore: Paul H. Brookes Publishing Co.
14. *Ismoilov B.S.* O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: ta’lim tizimi misolida / y.f.f.d. diss. – T., 2023. – 88-b.
15. *Karsenti, T., & Bugmann, J.* (2017). *The integration of technology in classrooms*. In T. Karsenti & L. Collin (Eds.), *The integration of ICT in the teaching and learning process* (pp. 1-16). Switzerland: Springer International Publishing.
16. UNESCO. (2020). *Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education - All means all*. Paris: UNESCO.
17. *O'Donnell, S.* (2018). *Making digital technology inclusive in education*. In G. Walker & S. Davies (Eds.), *Digital Inclusion and Exclusion* (pp. 89-102). London: Palgrave Macmillan.